XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 3 539,6 ming kishini tashkil etib, 2023-yil boshidan 57,3 ming kishiga ya'ni 1,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 515,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 2 023,7 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2023- yil yanvar-sentabr oylarida

-Aholi soni **57,3 ming kishiga** ko'paydi.

-Tirik tug'ilganlar soni **75,3 ming nafarni** tashkil etdi.

-Vafot etganlar soni **12,9 ming** nafarni tashkil etdi.

-Nikohlar soni **18,8 ming nafarni** tashkil etdi.

-Ajrimlar soni **2,6 ming nafarni** tashkil etdi

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida

Yil boshida doimiy aholi soni
3 482 318 kishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

75,3 *ming bola*
Tug'ilganlar soni

12,9 *ming kishi*
O'lganlar soni

6,9 *ming kishi*
Ko'chib kelganlar soni

12,0 *ming kishi*
Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 539 643 kishi
(2023- yilning 1- oktabr holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni[1)]
(2023- yilning 1- oktabr holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	*shu jumladan:*	
		shahar aholisi	*qishloq aholisi*
Qashqadaryo viloyati	**3 539,6**	**1 515,9**	**2 023,7**
shaharlar:			
Qarshi sh.	293,8	293,8	-
Shahrisabz sh.	146,5	146,5	-
tumanlar:			
G‘uzor	221,0	52,0	169,0
Dehqonobod	158,7	30,2	128,5
Qamashi	291,6	69,4	222,2
Qarshi	270,5	98,1	172,4
Koson	310,2	163,1	147,1
Kitob	280,3	104,6	175,7
Mirishkor	128,8	48,5	80,3
Muborak	92,9	74,0	18,9
Nishon	165,6	99,6	66,0
Kasbi	211,7	81,9	129,8
Ko‘kdala	187,1	29,5	157,6
Chiroqchi	266,2	76,7	189,5
Shahrisabz	233,7	56,3	177,4
Yakkabog‘	281,0	91,7	189,3

[1)] *dastlabki ma'lumot*

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni
(1- oktabr holatiga ming kishi)

	2022- y.	*2023- y.*	*O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da*
Qashqadaryo viloyati	**3 461,4**	**3 539,6**	**102,3**
shaharlar:			
Qarshi sh.	287,2	293,8	102,3
Shahrisabz sh.	144,1	146,5	101,7
tumanlar:			
G’uzor	215,9	221,0	102,4
Dehqonobod	155,4	158,7	102,1
Qamashi	285,1	291,6	102,3
Qarshi	264,0	270,5	102,5
Koson	302,7	310,2	102,5
Kitob	274,7	280,3	102,0
Mirishkor	126,1	128,8	102,1
Muborak	91,5	92,9	101,5
Nishon	161,8	165,6	102,3
Kasbi	207,1	211,7	102,2
Ko‘kdala	180,1	187,1	103,9
Chiroqchi	260,6	266,2	102,1
Shahrisabz	229,9	233,7	101,7
Yakkabog‘	275,2	281,0	102,1

Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022- y.	2023- y.[1]	o‘sish, kamayish	2022- y.	2023- y.[2]
Tug‘ilganlar	71 726	75 294	3 568	27,9	28,7
O‘lganlar	13 208	12 893	-315	5,1	4,9
Tabiiy o‘sish	58 518	62 401	3 883	22,8	23,8
Nikohlar	20 315	18 780	-1 535	7,9	7,2
Ajralishlar	2 731	2 601	-130	1,1	1,0

Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 75 294 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (71 726 kishi) nisbatan 3 568 kishiga yoki 5,0 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 28,7 promilleni tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (27,9 promille) nisbatan 0,8 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-sentabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



[1] *dastlabki ma'lumot*
[2] *dastlabki ma'lumot*

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Koson tumanida 28,9 dan 30,3 promillega va Nishon tumanida 27,9 dan 30,6 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

Tug‘ilish. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 75,3 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 28,7 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega ko‘payganligi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 27,9 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida)



O‘lim darajasi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 12 893 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (13 208 kishi) nisbatan 315 kishiga yoki 97,6 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 5,1 promille).

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari



O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi G‘uzorda (4,7 dan 5,3 promillega), Dehqonobodda (5,4 dan 7,6 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 18,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,2 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti



(2023- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

Nikohdan ajralishlar. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

2023- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023- yilning yanvar-sentabr oylari FHDYO organlarida 18 780 ta nikohlar va 2601 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,2 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 7,9 ta) va 1,0 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida 1,1 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2022- y.	*2023- y.*	*2022- y.*	*2023- y.*
Qashqadaryo viloyati	**20 315**	**18 780**	**2 731**	**2 601**
shaharlar:				
Qarshi sh.	1 724	1 615	356	366
Shahrisabz sh.	719	659	190	192
tumanlar:				
G’uzor	1 374	1 311	116	117
Dehqonobod	930	856	49	103
Qamashi	1 816	1 562	196	184
Qarshi	1 688	1 543	280	194
Koson	1 896	1 817	134	136
Kitob	1 471	1 359	259	206
Mirishkor	692	634	66	68
Muborak	606	571	65	69
Nishon	1 046	942	131	137
Kasbi	1 196	1 269	130	123
Ko‘kdala	600	763	50	60
Chiroqchi	1 830	1 437	207	180
Shahrisabz	1 150	1 046	233	187
Yakkabog‘	1 577	1 396	269	279

Migratsiya[1] (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6936 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 12012 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2022- yilning yanvar-sentabr oylarida	2023- yilning yanvar-sentabr oylarida
Ko'chib kelganlar	7 252	6 936
Ko'chib ketganlar	12 712	12 012
Migratsiya saldosi	-5 460	-5 076

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 5 076 kishiga (2022- yilning shu davrida minus 5 460 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 818), Yakkabog' (minus 678) va Shahrisabz (minus 628) tumanlarida kuzatilgan.

Yanvar-sentabr oylarida

Soni, *ming kishi*





[1]*shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda*
[2)] *dastlabki ma'lumot*

Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 293,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,9 ming kishiga yoki 1,7 % ga o‘sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida		2023- yilning yanvar-sentabr oylarida
	Tug‘ilish	
25,5		26,6

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 5,8 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 26,6 promilleni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida 25,5 promille bo‘lgan).

FHDYO organlarida 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 1 615 ta nikoh va 366 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,4 promilleni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2022- yilning mos davrida 8,1 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,7 promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan teng. 2022- yilning mos davrida 1,7 promille bo‘lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-sentabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)